

## RO‘ZG‘ORSHUNOSLIK BO‘YICHA MASHG‘ULOTLARDA O‘QUVCHILARNI TEJAMKORLIKKA O‘RGATISH

*Umarov Rahim Tojiyevich<sup>1</sup>, Umarova Nurnisa Rahimovna<sup>2</sup>, Abdullayeva Feruza<sup>3</sup>*

*<sup>1</sup>A.Qodiriy nomidagi JDPU, Jizzax sh., <sup>2</sup>H.Olimjon va Zulfiya nomidagi maktab o‘qituvchisi, Jizzax sh., <sup>3</sup>Jizzax shahar 19-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi o‘qituvchisi, O‘zbekiston.*

*e-mail: [umarovr@jdpu.uz](mailto:umarovr@jdpu.uz)*

***Annotatsiya:** Maqolada o‘quvchilarning uy-ro‘zg‘ordagi kundalik hayotda ko‘plab foydalaniladigan uy-ro‘zg‘or buyumlari va kiyim-kechaklarga tejamkorona munosabatda bo‘lishiga asosiy e‘tibor qaratilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Tejamkorlik, uy-ro‘zg‘or, kiyim-kechak, maishiy xizmat buyumlari, resurs, trikotaj, element, byudjet, daromad, tejash.*

***Аннотация:** В статье акцентируется внимание на бережливом отношении студентов к предметам быта и одежде, которые часто используются в быту дома.*

***Ключевые слова:** Бережливость, домашнее хозяйство, одежда, хозяйственные товары, ресурс, вязание, предмет, бюджет, доход, сбережения.*

***Annotation:** The article focuses on the thrifty attitude of students to household items and clothes that are often used in everyday life at home.*

***Keywords:** Thrift, household, clothing, household goods, resource, knitting, item, budget, income, savings.*

O‘quvchilarni uy-ro‘zg‘orda tejamkorlikka o‘rgatish bugungi kunning dolzarb muommolaridan biri hisoblanadi Albatta barchamizda kundalik turmushda ro‘zg‘orimizda eskirgan stol, stul, divan, shkafni va turli xildagi maishiy buyumlarni nima qilish kerak degan savol tug‘iladi. Bunday holda ularni qayta ishlab foydali uy-ro‘zg‘or buyumlariga aylantirish mumkin. Bu ishlarni nafaqat o‘zimiz balki, farzandlarimizga ham o‘rgatsak, ayniqsa maktablarda o‘tiladigan mehnat darslarida o‘rgatilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Maqolada o'quvchilarning uy-ro'zg'ordagi kundalik hayotda ko'plab foydalaniladigan uy-ro'zg'or buyumlari va kiyim-kechaklarga tejamkorona munosabatda bo'lishiga asosiy e'tibor qaratilgan.

Afsuski tevaragimizdagi hamma narsalarga tejamkorona munosabatda bo'lish to'g'risida juda kam gapiramiz va yozamiz. Gapirish esa kerak. Bolalarni nafaqat maktab davrida balki, kichikligidanoq, ya'ni oilada va maktabgacha ta'lim mussasasidaligidayoq tejamkorlikka o'rgatish masalasi o'ta muhim hisoblanadi.

Shuni e'tiborga olib umumiy o'rta ta'limning Texnologiya fanidan davlat ta'lim standarti asosida ishlab chiqilgan fan dasturiga ko'ra 5-9-sinfda o'tiladigan Texnologiya fanining barcha yo'nalishlarida Ro'zg'orshunoslik asoslari qismida uy-ro'zg'orda ta'mirlash ishlariga oid mavzular kiritilgan. Bunda o'quvchilar ongida turmushdagi tejamkorlikka oid tushunchalarni shakllantirish va amaliy ko'nikmalarni hosil qilish lozim.

Masalan, eski krovat yoki divandan turmushda foydalanishimiz mumkin. Buning uchun krovatni yog'och suyanchiqlaridan birini olib bo'shagan tarafini metall yoki yog'och oyoqchalarga o'rnatilsa bejirimgina xontaxta hosil bo'ladi. Ikkinchii suyanchiq ham oyoqlarga o'rnatilib chiroyli stol tayyorlanadi. Qalin dag'al matodan manzarali silliq qoplama yoki jild tayyorlanadi va divanni yotadigan qismiga qoplanadi. Bosh tarafiga chiroyli bolish tashlab qo'yiladi. Bu ishlarni bajarish uchun insonda ozgina bo'lsada, bilim, uquv va tajriba bo'lsa etarlicha. Qolaversa uyda bu ishlarni bajarilishini o'z ko'zi bilan ko'rgan farzandingizda bunday ishlarni mustaqil bajarish ishtiyoqi tug'iladi.

Shuni esda tutish kerakki, uy buyumlarini qo'lbola materiallardan yasash nafaqat oilaviy daromadlarni tejash nuqtai nazardan, bal'ki bolalarni mehnatga odatlantirish nuqtai nazardan ham katta ahamiyatga egadir. Ular kattalarga qo'lidan keguncha yordamlashib buyumlarni konstruksiyalashda, uy buyumlarini ta'mirlashda o'z kuchlarini sinab ko'radilar. O'quvchilarni yoshligidan nafaqat oiladagi tejamkorlikka, balki barcha jabhalarida tejamkorlikka o'rgatish orqali ularda iqtisodiy tushunchalarni shakllantiriladi.

Siz eski gazetalar, jurnallar va karton parchalarini tashlab yubormasdan, ularni yaxshi kitobga ayiraboshlashingiz mumkinligini, bunda bir tonna chiqitga chiqqan qog‘oz makulatura to‘rt metr kub yog‘och o‘rnini bosishini, ikkilamchi xomashyodan qog‘oz ishlab chiqarishda suv ancha miqdorda kam sarflanishini va havoning kam ifloslanishini ta’kidlashimiz lozim. Xalqimizda “Kimki bo‘lsa tejamkor, qut-baraka unga yor” degan naql bor.

Bugungi kunda eskirgan va allaqachon modadan chiqqan kiyimlarimizdan Texnologiya fanidan mashg‘ulotlarda turli xildagi buyumlar tikishimiz mumkin. Masalan, modadan qolgan, ammo hali ancha pishiq bo‘lgan charm plash va kurtkalardan foydalanib sumkachalar, tikuvdan qolgan qiyqim lardan, umrini yashab bo‘lgan trikotaj kiyimlaridan kursilarga qoplama, ishxona stullari uchun gilamchalar to‘qish, shuningdek choyni issiq saqlash uchun choyna kustiga qoplamalar tikish mumkin. Kattalar, ayniqsa yosh bolalar kiyadigan kuylaklarni engi va yoqasi eyilishi natijasida kiyishga yaroqsiz holatga kelib qoladi. Bunday holda uni tashlab yubormasdan yoqasi va engini teskari tomonga qilib tikilsa yana uzoq muddatga xizmat qiladi.

Shuningdek bolalar kiyib yurgan kurtka kichrayib qolsa, uni tikib bo‘lmaydigan bo‘lib ketgan jun paypoqning odatda butun yuqori qismini qirqib olib, uni eng qaytarmasiga ulansa bilaklarga yopishib turadigan rezinkali qulay to‘qima manjet hosil bo‘ladi. Eskirgan charm sumka, qo‘lqop va botinkadan kvadrat yoki oval yamoqlar bichish oson bo‘ladi. O‘g‘il yoki qiz bolalar kiyadigan jinsi tizzalari edirilgan bo‘lsa, charm yamoqlar solib foydalanishga yaroqli holga keltirilsa, unga ikkinchi jon ato etilib xizmat muddati uzaytiriladi. Shu yo‘l bilan maktablardagi Texnologiya fanidan mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni eski xizmatini o‘tab bo‘lgan buyumlardan ikkilamchi xomashyo sifatida foydalanib, unumli va foydali mehnatga jalb qilinadi, shuningdek o‘z navbatida ularning bo‘sh vaqtida foydali ishlar tashkil etiladi hamda ularda mehnatga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish va tejamkorlik kabi xislatlar shakllantiriladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tejamkorlik sira ham xasislikka kirmaydi, u pulni xaridlarga yaxshi o‘ylab sarflashni, xo‘jalikni oqilona yurgizishni, uy-ro‘zg‘orda buyumlaridan maqsadga muvofiq foydalanishni va ularni avaylashni bildiradi. Qolaversa, bolalarimizni yoshligidan tevaragidagi va ro‘zg‘orimizdagi buyumlarga hamda narsalarga tejamkorona munosabatda bo‘lish va asrab-avaylashga o‘rgatishimiz lozim. Bu esa kelajakda bolalarni mavjud resurslardan to‘g‘ri va oqilona foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga katta yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

- 1.Kanevskiy E.M. va boshqalar. Turmushda tejamkorlik sirlari. Toshkent. O‘qituvchi, 1988 y.,192 b.
- 2.Umarov R.T. O‘quvchilarda tejamkorlik tushunchalarini shakllantirish. .Uzluksiz ta’lim .Ilmiy-uslubiy jurnal, Toshkent, 2008 y. №1, B. 104-107.
- 3.Umarov R. T. Umarova N.R. O‘quvchilarni oilada tejamkorlikka o‘rgatish. “Tafakkur ziyosi” Ilmiy-uslubiy jurnali , 2019/3., B. 57-58